

“HALOLLIK” UMUMIY SEMALI ATOV BIRLIKLARNING SEMANTIK STRUKTURASI

Xo'jayeva Umida Maxmudovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

Ingliz tili amaliy kursi kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13888545>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Halollik” umumiy semali atov birliklarning semantik strukturasi tahlil etilgan. Tahlil jarayonida o'zbek tilidagi halollikka oid leksimalarning turli nutq jarayonlarida voqelanishi yoritilgan. Maqolada “halollik” umumiy ma'noli atov birliklarning semantik strukturasi analiz qilish jarayoni badiiy matnlar hamda ilmiy manbalarga tayanilgan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: sema, semantik struktura, halollik, leksima, umumiy sema, xususiy sema.

Annotation. This article analyzes the semantic structure of noun units with the general term "Honesty". In the process of analysis, the meanings of lexemes in the Uzbek language in various speech processes are studied. Semasiology is one of the most important achievements of linguistics. In the process of analyzing semantic structures, noun units with the meaning "Honesty" found in various artistic and scientific sources are studied.

Key words: Semasiology, semantic structure, lexeme, sema.

Аннотация. В данной статье анализируется семантическая структура именной единицы с общим термином «Честность». В процессе анализа изучаются значения лексем узбекского языка в различных речевых процессах. Семасиология является одним из важнейших достижений языкознания. В процессе анализа семантических структур изучаются именные единицы со значением «Честность», встречающиеся в различных художественных и научных источниках.

Ключевые слова: Семасиология, семантическая структура, лексема, сема.

Kirish

Shaxsning ma'naviy sifatlarini aks ettiruvchi muhim jihatlaridan biri uning nutqi hisoblanadi. Nutq orqali shaxsning ma'naviyatiga ma'naviy tashxis qo'yilar ekan bu murakkab jarayon hisoblanadi. Masalan, bir badiiy asarning bosh qahramoni va uning komillik darajasini aks ettiruvchi matn tayyorlash uchun ijodkor nutqida ham “ma'naviyat” leksik kategoriyasiga oid bo'lgan so'z va birikmalarning mavjudligi qahramonning qay darajada komil inson ekanligini tasvirlashga zamin yaratadi. Masalan, “ma'naviyat” leksik kategoriyasiga oid muhim sifatlardan biri “halollik” umumiy semali atov birliklardir. Mazkur ma'naviy guruhning semantik strukturasi chuqur tahlil qilish uchun, avvalo, tilshunoslikka oid ba'zi ilmiy atamalarining izohlarini keltirib o'tish lozimdir. Masalan, sema, semema, leksik kategoriya yoki semantik struktura tushunchalari tilshunoslikda qanday izohlanishini va ularga turli manbalarda berilgan ta'riflarga e'tibor qaratamiz. Leksik ma'no mavhum va izohlash mushkul bo'lgan hodisa hisoblanadi. Shavkat Rahmatullayev o'zining “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida XX asr tilshunosligining eng muhim va samarali bo'lgan yutuqlaridan biri *komponent analiz metodi* yani leksik ma'noni uzvlarga parchalagan holda o'rganishning kashf

etilgani¹ deya ta'kidlagan. Komponent analiz metodi *semik analiz metodi* deb ham ataladi. Demak, leksimalarning ma'nolarini semalarga ajratgan holda izohlash bu – ma'noni voqelikka nisbat bergan holda izohlanishidir. Sema – yunoncha – *sema* – “belgi” so'zidan olingan bo'lib, keng tushunchadan tor ma'noga qarab o'rganib boriladi².

Semantik strukturaga izoh beriladigan bo'lsa, tilshunoslikda murakkab va tilning turli nuqtai nazarlaridan analiz qilinadigan hodisa hisoblanadi. Muhayyo Hakimovanning “Semasiologiya” qo'llanmasida aytib o'tilganidek, til leksik-semantik sistemasining asosiy birligi bu – leksik ma'noli so'z yoki leksima.³ Mazkur maqolada “halollik” semali atov birliklarning qanday leksema va qanday leksik ma'noli so'zlar orqali ifodalanganligini tahlil etamiz. Analiz qilish jarayonida turli badiiy asarlardan va tilning turli yo'nalishlarini qamrab olgan lug'atlardan foydalaniladi. “Halollik” umumiy ma'noli atov birliklarning turli xil leksemalar bilan ifodalanishi va leksemalar boshqa so'zlar bilan qaysi semalarni orqali leksik kategoriyaga birika olishi misollar orqali tahlil etilgan. Quyida “halollik” umumiy semali atov birliklarining semantik strukturasi tahlil etilgan.

Halollik leksimasi bilan birikma hosil qilgan har bir birlik va so'zlarning ma'nolari tahliliga tizimli to'xtalib o'tamiz.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da keltirilgan “*halollamoq*” leksimasi anglatadigan semalarga⁴ to'xtaladigan bo'lsak, bu leksimaning o'z va ko'chma ma'nolari mavjuddir. Bu leksema o'z ma'nosida “*halol qilmoq, yesa, ichsa bo'ladigan qilmoq*” ma'nolarida qo'llaniladi. Ko'chma ma'noda hamda sintagmatik munosabat asosida esa *biror bir narsani oqlaydigan, unga munosib ish qilmoq* degan ma'noda qo'llanilgan. Masalan, “*sutni halollamoq*” birikmasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu birikmada *halollamoq* leksimasi ko'chma ma'noda ya'ni “*ona sutni oqlamoq unga munosib ish qilmoq*” ishlatilgan. Shuningdek, shu lug'atda uchraydigan yana bir birikma ya'ni “*qo'lni halollamoq*” birikmasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu birikmada *qo'l* leksimasi o'z ma'nosida (inson tana a'zosining nomi) emas, balki *halollamoq* leksimasi bilan birikkan holda “*xatna qilmoq*” degan ma'noni anglatadi. Misol tariqasida Tog'ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasidan bir parcha keltirib o'tilgan: “*Shoymardon – ferma mudiri, o'g'lining qo'lini halolladi*”.

“Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati” da keltirib o'tilgan “*halol risq topmoq*” birikmasini⁵ izohiga to'xtaladigan bo'lsak, bu birikma keng va judayam turli xil ma'nolarni anglatadi. Dastavval, bu birikma “*o'z mehnati bilan tirikchilik qilish*” ma'nosini anglatadi va uni chuqqurroq tahlil etadigan bo'lsak, “*omonatga xiyonat qilmaslik, yetimlarni boshini silash, o'z mol-mulki hisobidan zakot berish, qarzlarni o'z vaqtida qaytarish*” kabi semalari ham mavjuddir. Albatta, bu semalar turli nutq jarayonlarida hamda boshqa leksemalar bilan sintagmatik munosabatda namoyon bo'ladi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “halol” leksimasining sport sohasida ishlatiladigan ma'nosi keltirib o'tilgan. Ushbu leksema xalqaro termin darajasida jahon arenalarida qo'llanmoqda. Kurash usullaridan bir bo'lgan “halol” leksimasi “*sof g'alabaga erishish, hech*

¹ Sh. Rahmatullayev “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligi- Toshkent: “Universitet”, 2006, 50-bet.

² Ko'rsatilgan manbaa.

³ M.Hakimova “Semasiologiya” o'quv qo'llanma-Toshkent, 2008, 31-bet.

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. I. – Toshkent: O'zME, 2022.

⁵ “Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati”- Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2010, 744-bet.

qanday qing'ir usullarsiz g'alabani qo'lga kiritmoq , *"ustunlikka erishmoq"* semalari bilan ma'naviyat kategoriyasiga bilvosita aloqador hisoblanadi. Misol tariqasida Nazar Eshonqulning "Yalpiz hidi" asaridan bir jumla keltirib o'tilgan: – *Halol! - baqirib yubordi Sharif chavandoz. – Buni yiqitish deydi-da!* Mazkur leksema ushbu matnda "or-nomus, g'urur, faxr, sof g'alaba", "yigitlik sha'ni", "yaqqol ustunlik" ma'nolarini ham anglatadi.

Quyida "halol" leksimasiga ma'nodosh bo'la oladigan ba'zi bir so'zlarning izohi va tahliliga to'xtalib o'tamiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mavjud bo'lgan "sof" so'zi ba'zi o'rinlarda, ya'ni ko'chma ma'noda qo'llanilganda, "halol" so'ziga ma'nodoshlik hosil qila oladi. "Sof" leksimasining o'z va ko'chma ma'nolariga ta'rif beradigan bo'lsak, leksimaning o'z ma'nosi "toza, beg'ubor, musaffo" kabilardir. Ushbu sememaga misol tariqasida Erkin Vohidov o'zining "Boychechak" she'rida tongni "sof" deya tariflaganini keltirishimiz mumkin. "Sof" so'zining yana bir semalaridan biri "asil, toza, boshqa unsurlar aralashmagan" ma'nosidir. Masalan, tilimizda ko'p uchraydigan "sof oltin" birikmasini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bu leksima ba'zi bir nutq jarayonlarida "halol" so'ziga sinonim holda qo'llaniladi va bu holatda "sof" leksimasi ko'chma ma'nosidan yani "dog' tushmagan, har qanday ayb nuqsondan xoli, toza va pokiza" semalaridan foydalaniladi. Masalan, A. Muxtor ushbu leksimani "halol" ma'nosida qo'llagan: "Bu bozor ahliga, bu yerdagi sof-u nosof, ikir-chikir bandalarga mening nima daxlim bor?.." (Asarlar). Ushbu holatda "sof-u nosof bandalar" birikmasi halol yoki "harom", "qing'ir yo'l bilan tirikchilik qiladigan" insonlarni ta'riflab kelmoqda. Darhaqiqat, "sof", "soflik", "sofdil" kabi leksimalarning halol risq bilan hayot kechiruvchi insonlarga nisbatan ishlatilishini kundalik hayotimizda ham uchratishimiz mumkin.

Shu ayonki, *halol inson* birikmasiga duch kelganimizda, tasavvurimizda boshqalarga "iltifot qiladigan", "muhtojlarga yordam qo'lini cho'zadigan inson" gavdalanadi.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash joizki, halollik leksemasi badiiy asarlar hamda izohli lug'atlarda bir leksimaning turli nutq kontekslarida anglatadigan bir-biriga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan birlikdir. Alibek Rustamov o'zining "So'z xususida so'z" kitobida, tilda bir narsaning o'zini turlicha atash imkoniyati, nutq jarayonida so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolaridan foydalanishni o'ziga xos bir san'at deya takidlagan. ⁶ Ushbu maqolada "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi "halollik" umumiy semali leksemasining sintagmatik munosabati asosida anglatadigan, bir-biriga semantik bog'liq bo'lgan leksik tizimi tahlil etilgan. "Halollik" semali atov birliklar tilimizda turli xil sohalarida qo'llanishiga guvoh bo'ldik. Darhaqiqat, ularning turli nutq jarayonlarida har xil sohaga oid bo'lgan ma'nolari til foydalanuvchilari tomonidan ishlatilganida uning semantik imkoniyatlari keng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, "halollik" semali atov birliklarning izohlari bilan bir qatorda "halol" leksimasiga ma'nodosh sifatida keng qo'llaniladigan nutqiy sinonimlarning o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanilganida anglatgan ma'nolarining izohlari turli ma'nolar uchun xoslanadi. Yuqorida eslatib o'tilgan misollar va jumalarni chuqur tahlil qilgan holda, bir leksema judayam keng va boy bo'lgan semantik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

⁶ Alibek Rustamov "So'z xususida so'z"-Toshkent: "Yosh gvardiya", 1987.

References:

1. Alibek Rustamov. "So'z xususida so'z". – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1987.
2. "Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati". – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2010. –B. 744
3. Muhayyo Hakimova. "Semasiologiya" o'quv qo'llanma. –Toshkent, 2008. 31-bet.
4. Sh. Rahmatullayev. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi. – Toshkent: "Universitet", 2006. 50-bet.
5. "O'zbek tilining izohli lug'ati": 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. I. – Toshkent: O'zME, 2022.